

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

4-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>O.T.Tursunov, F.R.Holboev</b> Qashqadaryo viloyatining aholi zich joylashgan hududlarida tarqalgan <i>Rodentia</i> turkumi vakillarining ekologik holati.....	117
<b>B.M.Sheraliyev, D.E.Urmonova, O.S.Azamov</b> <i>Cottus spinulosus</i> kessler, 1872 (Teleostei: Cottidae) populyatsiyalari orasidagi genetik farqlanish .....	120
<b>F.N.Xabibullayev, M.M.Yunusov</b> Farg'ona vodiysida turli xil genotipdagi asalariardan to'plangan asalning kimyoviy tarkibi .....	125
<b>U.I.Obidjanov</b> Biologiya o'qitish metodikasi kursi «Hayvonlar» bo'limi" infuzoriya-tufelka" mavzusi bo'yicha laboratoriya ishlarini takomillashtirish .....	129

#### GEOGRAFIYA

<b>B.B.Eshquvvatov</b> O'rta Zarafshon konussimon yoyilma landshaft komplekslari.....	133
<b>Y.Karimov, Q.Yarashev</b> Sirdaryo viloyatida tuproq sho'rli sizoq suvlari sathi va minerallashuvio'zgarishini o'rganish usullari .....	139
<b>R.T.Pirnazarov</b> To'g'onli ko'llar va ularning genezisi haqida.....	144

#### ILMIY AXBOROT

<b>M.M.Xolmatova</b> Talabalarda gigiyenik madaniyatini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari.....	150
<b>R.R.Mamatov</b> Gerta Myuller asarlarining badiiy xususiyatlari .....	156
<b>R.U.Abdullazizova</b> Boshlang'ich sinf o'quvchilarida olam rangli-lisoniy manzarasini shakllantirishning samaradorligi .....	156
<b>R.U.Abdullazizova</b> Boshlang'ich sinf o'quvchilarida olam rangli-lisoniy manzarasini shakllantirishning samaradorligi .....	159
<b>A.A.Mirzayev</b> Ibn Arabiyning tasavvufiy-irfoniy qarashlarida "Vahdat ul-vujud" konsepsiyasi tahlili .....	163
<b>L.K.Karshibayeva, H.E.Egamqulov</b> Sirdaryo viloyatining demografik vaziyati va uning geografik jihatlari.....	166
<b>A.A.Yo'ldoshev</b> O'zbekistonda ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlar strategiyasi.....	171
<b>S.Kunduzaliyeva</b> Dars jarayonlarida mediyata'limdan foydalanishning ahamiyati .....	174
<b>N.R.Eshchanova</b> Nafs tarbiyasida tasavvuf ilmining ahamiyati .....	178
<b>M.B.Radjabova</b> O'zbekistonda turar-joy masalasining tarixiy-huquqiy asoslari va davlat tomonidan tartibga solinish asoslari .....	182
<b>S.Isroiljonov, V.A.Karimov</b> Talabalarni jismoniy salomatlik ahvolini darajasi .....	186
<b>D.I.Umirzakova</b> Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining tolerantlik tafakkurini "Yumshoq ko'nikmalar" asosida rivojlantirish mazmuni .....	190
<b>K.N.Murodov</b> Sport kurashida sportchilarining kuch chidamliligini rivojlantirish va musobaqa faoliyati samaradorligini oshirish texnologiyasi .....	196
<b>Q.Sh.Omonov, N.A.Abdullayeva</b> Oziq-ovqat mahsulotlarini kishi sog'ligiga ta'siri aks etgan maqollarning lingvomadaniy tahlili .....	203
<b>Sh.N.Nurova</b> Ibn Sino ta'limotida inson masalasi va insoniy xislatlar to'g'risida .....	206
<b>Z.N.Usmonov</b> Sog'lom bo'lish uchun och qolish .....	209

**BO'LAJAK XORIJIY TIL O'QITUVCHILARINING TOLERANTLIK TAFAKKURINI  
"YUMSHOQ KO'NIKMALAR" ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MAZMUNI**

**СОДЕРЖАНИЕ РАЗВИТИЯ МЕНТАЛИТЕТА ТОЛЕРАНТНОСТИ У БУДУЩИХ  
УЧИТЕЛЕЙ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА НА ОСНОВЕ «МЯГКИХ НАВЫКОВ»**

**THE CONTENT OF DEVELOPING THE MENTALITY OF TOLERANCE OF FUTURE  
FOREIGN LANGUAGE TEACHERS ON THE BASIS OF "SOFT SKILLS"**

**Umirzakova Dilfuza Iloxomovna<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>Umirzakova Dilfuza Iloxomovna

– Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya**

*Mazkur maqolada bo'lajak xorijiy til o'qituvchilari uchun tolerantlik tarbiyasi bilan bog'liqlikda tashkil etiluvchi faoliyat tolerantlikning turli yo'nalishlarini o'z ichiga qamrab olishiga ham e'tibor qaratilishi, bir tomondan, mavjud ijtimoiy-siyosiy, falsafiy fanlar tarkibida beriladigan bilimlar haqidagi ustuvor vazifalar to'g'risidagi fikr mulohazalar bayon qilingan.*

**Аннотация**

*В данной статье обращается внимание на то, что деятельность, организуемая в связи с воспитанием толерантности у будущих учителей иностранного языка включает в себя различные направления толерантности, с одной стороны, знания, предоставляемые в рамках существующих общественно-политических, философских мнений науки о приоритетных задачах.*

**Abstract**

*This article draws attention to the fact that the activities organized in connection with the education of tolerance in future foreign language teachers include various directions of tolerance, on the one hand, the knowledge provided within the existing socio-political, philosophical views of the science of priority tasks.*

**Kalit so'zlar:** *gender tolerantlik, yangi taraqqiyot, zamonaviy dunyoqarash, ilmiy-nazariy qarashlar, tolerantlik tafakkurini, individual sifatlar, barkamol inson, ta'lim standartlari, fuqarolik jamiyatini, ilmiy-metodik.*

**Ключевые слова:** *гендерная толерантность, новое развитие, современное мировоззрение, научно-теоретические взгляды, толерантное мышление, индивидуальные качества, совершенный человек, образовательные стандарты, гражданское общество, научно-методические подходы.*

**Key words:** *gender tolerance, new development, modern worldview, scientific-theoretical views, tolerance thinking, individual qualities, perfect person, educational standards, civil society, scientific-methodology.*

**KIRISH**

Tolerantlik tafakkurini rivojlantirish – murakkab jarayon bo'lib, bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining kursdoshlari va atrofdagi kishilar bilan muloqotga kirishish asosida hamda boshqa kishilarga munosabati va qarashlari bilan bog'liq ijtimoiy voqelik ta'sirida amalga oshadi.

Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilari uchun tolerantlik tarbiyasi bilan bog'liqlikda tashkil etiluvchi faoliyat tolerantlikning turli yo'nalishlarini o'z ichiga qamrab olishiga ham e'tibor qaratilishi zarur.

Ijtimoiy-demografik omillarga tayangan holda, olimlar tolerantlikning quyidagi sohalarini ajratib ko'rsatishadi:

- 1) gender tolerantlik;
- 2) yoshga doir tolerantlik;
- 3) ma'lumotlilik darajasi bilan bog'liq tolerantlik;
- 4) millatlaro tolerantlik;
- 5) irqiy tolerantlik;
- 6) diniy tolerantlik;
- 7) geografik tolerantlik;

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Bundan tashqari, oliy ta'limda tolerantlik tarbiyasini amalga oshirishda bugungi kungacha to'plangan tajribalar, falsafiy yondashuvlardan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir. Boshqacha aytganda, bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarida tolerantlik tafakkurini rivojlantirishda ekzistensial, devirsifikasion, kognitiv, bixiveorizm, dialogik, fasilitativ, ijtimoiy-madaniy yondashuvlarning mazmuni va imkoniyatlarini samarali tatbiq etish lozim.

Ekzistensial yondashuv tolerantlikni avtomatlashgan, stereotip harakat sifatida emas, anglangan, aniq vaziyatda tolerantlik sub'yektidan mazmunli yo'nalganlikni topa olish va mas'uliyat hissi bilan yondashuvni talab etuvchi jarayon sifatida ta'riflaydi. Mazkur holatda tolerantlik sinkretik tavsifga ega aksiologik modelni o'zida aks ettiradi. Ya'ni, maqsad bilan bog'liq qadriyatlar unga erishish mazmuni, vositalari bilan bog'liq qadriyatlarni aniqlab olishni talab etadi.

Deversifikasion yondashuv nuqtai nazaridan tolerantlik faqat bir defenis yoki tavsifgagina ega emas. Tolerantlik – bu murakkab, ko'pgina jihatlarga, tarkibiy qismlarga, ko'plab namoyon bo'lish va rivojlanish yo'nalishlariga ega, insonning individual va ijtimoiy hayotining barcha sohalarini qamrab oluvchi hodisa sifatidadir.

Kognitiv yondashuv nuqtai nazaridan tolerantlik o'zida ko'p o'lchamli, xilma-xil bilim va tafakkur natijalarini aks ettiradi. Olam manzarasi murakkab ko'rinishga ega bo'lib, ko'plab turli-tuman nuqtai nazarlardan yagona haqiqatga kelish oson emas.

Bixevioristik yondashuv tolerantlikni insonning “boshqalar” bilan konstruktiv o'zaro harakatiga yo'nalgan xulq-atvori; boshqa insonlarni o'zi bilan teng ko'rish, shaxs sifatida e'tirof etishini tavsiflovchi sifat sifatida sharhlaydi.

Dialogli yondashuv tolerantlikning muhim turi – boshqa kishilar bilan o'zaro munosabat, shaxslararo o'zaro harakat va muloqotni yo'lga qo'yishning muhim usuli – shaxslararo tolerantlikni taqozo etadi. Aynan tolerantlikning mazkur turida tolerantlik muammosining barcha (ham uni o'rganish, ham o'rgatish va rivojlantirish nuqtai nazaridan) jihatlari yorqin namoyon bo'ladi.

Fasilitativ yondashuvda tolerantlikni rivojlantirishning adekvat psixologik-pedagogik taktikasini izlash, tolerantlikning tabiiy, refleksiv va individual shakllanishi uchun har bir subyektda shaxsiy, mustaqil va erkin nuqtai nazarni ishlab chiqish uchun ko'proq ijobiy shart-sharoitni yaratishga asosiy e'tibor qaratiladi.

Ijtimoiy-madaniy yondashuv tolerantlikni hayotiy faoliyat strategiyasida namoyon bo'luvchi shaxs fazilati sifatida ko'rib chiqishni talab etadi. Aynan mazkur yondashuv shaxsda etnik tolerantlikni shakllantirishda, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etadi.[1]


Tolerantlik tafakkurini rivojlantirishning modulli modeli –tolerantlik fazilatini shakllantirish muammosi mustaqil masala sifatida ko'rib chiqiladi hamda o'quv rejasiga maxsus kurs va fakultativ mashg'ulotlarni kiritish orqali hal etiladi.

Tolerant ong va xulq-atvorni shakllantirishning fanlararo modeli o'zida mazmuni va yo'nalganligidan qat'iy nazar tolerantlik madaniyatini shakllantirishning barcha pedagogik metod va usullarini o'zida birlashtirishni talab etadi. Har bir oliy ta'lim muassasasi o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib, tolerantlik tafakkurini rivojlantirish metodikalarini ishlab chiqishi yo'lga qo'yiladi.[2]

#### **NATIJARLAR**

Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarida tolerantlik tafakkurini rivojlantirish, bir tomondan, mavjud ijtimoiy-siyosiy, falsafiy fanlar tarkibida beriladigan bilimlar majmuidan iborat bo'lsa, ikkinchi tarafdin, oliy ta'lim tizimidagi darsdan tashqari ommaviy-tarbiyaviy faoliyatni ham o'z ichiga qamrab oladi. Tadqiqot natijasida aynan “Falsafa” va “Dinshunoslik” fani o'quv jarayonida bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarida tolerantlik fazilatlarini shakllantirish uchun pedagogik imkoniyat eng yuqori ekanligi aniqlandi. Birinchidan, mazkur fanlar fan-mavzu mazmunida tolerantlik tamoyilining xususiyatlari mavjud bo'lsa, ikkinchidan ushbu fanlar barcha oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayoniga kiritilgan.

Interfaol ta'lim texnologiyalari o'quv jarayonini barcha ishtirokchilari – talabalar va o'qituvchilar bir-biri bilan o'zaro muloqot qilish, axborot almashish, muammolar va vazifalarni birgalikda hal qilish orqali tolerant munosabatlarni o'rnatishlarini o'z ichiga oladi. Tolerantlik tamoyili asosida ta'lim muhitini barqarorlashtirishning modeli (2.2-jadvalga qarang) .



**2.2-jadval. Tolerantlik tamoyili asosida ta’lim muhitini barqarorlashtirishning modeli**

Tolerantlik g’oyalarini bo’lajak xorijiy til o’qituvchilari tafakkuriga singdirishning me’yori ularda jamiyat a’zolariga nisbatan o’ziga xos o’zini tutish ko’nikmalari shakllanib, hayotiy mezonga va qadriyatlarga aylanganlik darajasi bilan belgilanadi. Mazkur jarayon aytib o’tilgan xususiyatlardan tashqari tarixiy-madaniy, umumbashariy va milliy qadriyatlar tizimi bilan bog’liqlikda takomillashtirilishi lozim bo’ladi. Chunki tolerantlikka o’rgatish insonlarni o’z haq-huquqlarini anglash barobarida o’zgalarning ham haq-huquqlarini qabul qilish va tushunishga o’rgatishdan iborat qilib belgilangan.

Jahon ta’lim tizimi amaliyotida oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarining tolerantlik tafakkurini “yumshoq ko’nikmalar” asosida rivojlantirish orqali ularning o’zgaruvchan mehnat bozori talablariga moslashuvchanligini oshirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Bu tendensiya keyingi paytlarda xalqaro ilmiy jamoatchilik tomonidan “pedagogik dunyoqarash” (pedagogical worldview) muammosiga bag’ishlangan ilmiy tadqiqotlarning ko’payishiga sabab bo’lmoqda.

Bugungi kunga kelib zamonaviy ta’lim tamoyillari o’zgarimoqda. Endi bitiruvchiga ko’p miqdordagi bilim yoki kompetensiyalar to’plamini berishdan ko’ra yumshoq ko’nikmalarga, ya’ni tez o’zgaruvchan iqtisodiy muhitda ishlash tayyorgarligiga, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni mazmunli idrok etish va tanqidiy baholashga, ularning rivojlanishini bashorat qilishga, ularga moslashish qobiliyatini ta’minlaydigan jarayonlarga ta’sir ko’rsatishga qodir bo’lgan mutaxassislarni tayyorlash ustuvorlik kasb etmoqda.[3]

Tadqiqotchi olim A.K.Markova bo’lajak pedagog yetukligining turli aspektlari bilan uning professionalligi o’rtasidagi mutanosiblikni o’rganib chiqadi va universal kompetentlikning to’rt turini belgilaydi: maxsus, ijtimoiy, shaxsiy, individual:

1. Maxsus yoki faoliyatga yo'naltirilgan kasbiy ko'nikmalar yuqori professional darajadagi faoliyatni tavsiflaydi va u nafaqat maxsus bilimlarning mavjudligini, balki uni amalda qo'llash qobiliyatini ham o'z ichiga oladi.

2. Ijtimoiy kasbiy ko'nikmalar kasbiy faoliyat va hamkorlik usullari, kasbiy hamjamiyatda qabul qilingan kasbiy muloqot usullarini ng o'zlashtirilganligini tavsiflaydi.

3. Shaxsiy kasbiy ko'nikmalar o'zini namoyon qilish va o'zini rivojlantirish usullarini, kasbiy deformatsiyaga qarshi turish vositalarining egallanganligini tavsiflaydi. Bu shuningdek, mutaxassisning kasbiy faoliyatini rejalashtirish, o'zi qaror qabul qilish va muammoni ko'rish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi.

4. Shaxsiy kasbiy ko'nikmalar o'zini o'zi boshqarish usullariga egaligini, kasbiy o'sishga tayyorlikni, kasbiy qarishga moyil emaslikni, barqaror kasbiy motivatsiya mavjudligini ifodalashi bilan tavsiflanadi.[4]

Shaxsiy muloqot darajasida yumshoq ko'nikmalarning ishonchli ta'rifi Z.A.Aksyutina tomonidan berilgan: "O'zgaralar bilan birgalikda harakat qilish istagi va ko'nikmasi, o'ziga va o'zaro muloqot qobiliyatiga bo'lgan ishonch, hamkorlik qilish va muloqot jarayonida yuzaga keladigan muammolarni yengish qobiliyati". Ko'rib chiqilgan qarashlar, fikrlar asosida, biz yumshoq ko'nikmalarni bilim, malaka va fazilatlar tizimi sifatida qaraymiz hamda shaxs tomonidan jamiyatda o'z funksiyalarini huquqiy, madaniy, kommunikativ, kasbiy, oilaviy darajada turli davlat tizimlari va tashkilotlari bilan birgalikda hal qilishini tushunamiz.

G.A.Vorobyev yumshoq ko'nikmalarni murakkab hodisa sifatida ko'rib chiqadi va uning tarkibidagi quyidagi o'zaro bog'liq tarkibiy qismlarni ajratib beradi:

- lingvistik va o'lkashunoslik komponenti (milliy va madaniy mohiyatga ega bo'lgan leksik birliklar va ularni madaniyatlararo muloqot sharoitida qo'llash qobiliyati);

- ijtimoiy-lingvistik komponent (ijtimoiy qatlamlarning, turli avlodlar, jinslar, ijtimoiy guruhlar, lahjalar vakillarining til xususiyatlari);

- ijtimoiy-psixologik komponent (ijtimoiy- va madaniy-shartli ssenariylar, milliy o'ziga xos xulq-atvor modellari va ushbu madaniyatda qabul qilingan aloqa texnologiyalaridan foydalanish);

- kulturologik komponent (ijtimoiy-madaniy, tarixiy-madaniy, etnomadaniy zamin).[5]

Tadqiqotimizda asos sifatida biz bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining tolerantlik tafakkurini yumshoq va maslashuvchan ko'nikmalar asosida rivojlanganlik darajasi psixodiagnostikasiga quyidagi yondashuvlarni qo'lladik:

1) shaxsga yo'naltirilgan yondashuv - bo'lajak tarix o'qituvchisi shaxsining o'zaro bog'liq fazilatlarini tizimini, aql-idrokning o'zaro aloqasi va o'zaro ta'sirini, o'z-o'zini anglash xususiyatlarini, hissiy rivojlanish darajasini, irodaviy va kommunikativ sohalarni hisobga olgan holda o'rganish;

2) dinamik yondashuv - o'rganish davomiyligi, ya'ni turli xil ta'lim va kommunikativ vaziyatlarda subyektlarning xatti-harakatlarini kuzatish, talabalarning rivojlanish dinamikasini o'rganish, kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etishning mumkin bo'lgan usullarini aniqlash uchun yetarli vaqt;

3) prognostik yondashuv - unda so'rov natijalari nafaqat talabalarning kerakli fazilatlarini va ko'nikmalarini aniqlash, umumiy va maxsus qobiliyatlarni rivojlantirish, balki uning shaxsiy o'zini o'zi rivojlantirish prognozi, kasbiy rivojlanish va ijtimoiy-madaniy yondashuv nuqtai nazaridan uning potensial imkoniyatlarini aniqlashga yo'naltirilganligi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining moslashuvchan va yumshoq ko'nikmalarni aniqlashning quyidagi tamoyillarini shakllantirish mumkin:

- ta'lim oluvchilarning xatti-harakatlari va faoliyatining turli jihatlarini baholashning murakkab xarakteri, bu har xil ma'lumot manbalaridan foydalanish va qobiliyatlarining eng keng doirasini qamrab olishga imkon beradi;

- talabalarning xatti-harakatlarini o'rganish, kuzatish va baholash bosqichining davomiyligi;

- moyilligi va qiziqishlariga eng mos keladigan faoliyat yo'nalishlari bo'yicha bo'lajak mutaxassislarning xatti-harakatlarini tahlil qilish (yoshlarni maxsus tashkil etilgan sub'yekt-o'yin faoliyatiga qo'shish, uni tegishli mavzuli faoliyatning turli shakllariga jalb qilish va h.k).

Shu o'rinda dunyoqarash mezonga alohida to'xtalib o'tishni maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz. So'nggi yillarda psixologik-pedagogik adabiyotlarda "kasbiy dunyoqarash" tushunchasi ishlatila boshlandi, bunga mualliflar tomonidan o'qituvchi kasbiy kompetentligining qirrasini sifatida qaralmoqda hamda u pedagogik ong bilan bog'liq holda o'zini o'zi anglashni taqozo qiladi.

### MUHOKAMA

Shunga qaramay, hozirgi paytda pedagogik dunyoqarashni shakllantirish muammosi yetarli darajada rivojlanmagan. Bu, birinchi navbatda, yaqinga qadar ilmiy doiralarda faqat umumiy falsafiy dunyoqarash tushunchasi mavjud bo'lganligi va pedagogik adabiyotda u faqat shu ma'noda ishlatilganligi bilan bog'liq. Biroq, zamonaviy falsafa "dunyoqarash" tushunchasini kengroq talqin qilib, "qisman dunyoqarash" hodisasini ochib beradi.

Dunyoqarash insonning "hayotiy dunyosi"ning aksi sifatida tushuniladi, shaxsning ma'lum ob'yektiv faoliyati jarayonida rivojlanadi va ma'lum bir ilmiy soha bilan bog'liq. Shu sababli, pedagogik dunyoqarashni shaxsning xulq-atvori va faoliyatini belgilaydigan pedagogik hodisalar dunyosiga va unda o'ziga bo'lgan qarashlari va munosabatlari tizimini o'z ichiga olgan ilmiy tushuncha sifatida ajratib ko'rsatish mumkin bo'ladi.

Pedagogika fanida pedagogik dunyoqarashni shakllantirish muammosi bo'yicha yagona nuqtai nazar hali shakllanmagan. Pedagogik dunyoqarashni shakllantirish masalalarini aks ettiruvchi maxsus nazariy tadqiqotlar deyarli mavjud emas. O'rganilayotgan soha bilan bog'liq muammolar adabiyotda o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishining boshqa masalalarini o'rganish bilan bog'liq holda tez-tez ko'rib chiqiladi.

Mezon - bu o'rganilayotgan hodisaning eng muhim xususiyatlari sanaladi, ular me'yor, etalon kabi tushunchalar bilan uyg'unlik kasb etadi va uning eng mukammal, muhim darajasini ifodalaydi. Mavjud holatni u bilan o'zaro bog'lab, ularning tasodifiylik darajasini va shu sababli me'yorga yaqinlashishini aniqlash va tavsiflash mumkin.

Bo'lajak xorijiy til o'qituvchisining tolerantlik tafakkurini rivojlantirishga "yumshoq ko'nikmalar" yondashuvining xususiyatlari OTM talabalarining rivojlantirish vazifalarini aniqlash imkonini beradi va u shaxsning dunyoqarashi, bilishi, qadriyatli-motivasion, faoliyatli-uslubiy sohalarini o'z ichiga oladi.

Tadqiqotimizda qo'yilgan vazifa ko'rib chiqilayotgan tolerantlik tafakkurining ko'rsatkichlari va rivojlanish darajasini aniqlashdan iborat. U tolerantlik tafakkurining quyidagi darajalarini aniqlash asosida hal qilindi: "yuqori", "o'rta", "past".

Yuqori darja - predmetni kuchli tizimli, yaxlit bilishi, keng ilmiy va estetik dunyoqarashi, hodisalarning mohiyati, ziddiyatlari va rivojlanish qonuniyatlari mohiyatiga qaratilgan yuqori bilimi, qiziqishi, aniq hissiyotlari bilan ajralib turadi, natijada, bilish faoliyati jarayonida estetik reaksiya, madaniy va tarixiy faktlarni tahlil qilish, sabab - oqibat munosabatlarini aniqlash, hodisalarni o'xshatish va taqqoslash, voqealar rivojlanishining mumkin bo'lgan versiyalarini taklif qilish, farazlarni shakllantirish, baholash voqealar, o'z nuqtai nazarini oqilona himoya qilish, yangi vaziyatlarda bilimlardan foydalanish, yuqori darajadagi bilim faoliyati, tarixiy hodisalarni idrok etish va tahlil qilishga ijodiy yondashish, muammolarni aniqlashga, muammoli savollarni ko'tarishga qaratilgan aniq yo'nalishlarni aniqlash qobiliyati va boshqalar, tadqiqot muammolarini mustaqil rivojlantirish uchun harakat qilish.

O'rtacha daraja - yetarli miqdordagi bilim darajasi, ammo yetarli darajada tizimlashtirilmagan, qoniqarli umumiy, tarixiy va badiiy estetik dunyoqarash, rivojlangan kognitiv qiziqish, asosan, muammolarni hal qilish vositalari va usullariga yo'naltirilgan, hissiy reaksiya natijalarga qaraganda ko'proq kognitiv faoliyat jarayoni; ijtimoiy-siyosiy va madaniy faktlarni tahlil qilish, sabab-oqibat aloqalarini aniqlash, hodisalarni taqqoslash va o'xshatish, voqealar rivojlanishining mumkin bo'lgan versiyalarini taklif qilish, voqealarni baholash qobiliyati yetarli darajada rivojlanmagan; izohlash tizimida xatolar mavjud; manbalar bilan ishlash ko'nikmalari yetarli darajada shakllanmagan; tasavvur ijodiy fikrlash ustidan ustun; ushbu toifadagi talabalar dars jarayonidagi faol ishtiroki, o'zgaruvchan va muqobil vositalar va muammolarni hal qilish usullarini mustaqil izlashga intilishi bilan ajralib turadi.

### XULOSA

Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining tolerantlik tafakkurini rivojlanganligini baholash uchun quyidagi usullar tanlandi: anketa so'rovlari; kuzatuv; nazorat bo'limlari; ijodiy faoliyat mahsulotlarini ekspert baholash (rasmlar, insholar, taqrizlar, dramatik ko'rinishlar).

Xulosa qilganda, turli xil ilmiy yondashuvlarni tahlil qilish ijtimoiy-madaniy kompetensiya kommunikativ qobiliyatning bir tomoni sifatida, mos muloqotni olib borish qobiliyati sifatida, ijtimoiy-

madaniy bilimlar majmuasi sifatida qaralishi, xulq-atvor modellari, urf-odatları va an'anaları to'plami sifatida qaralishini aniqlashga imkon berdi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Кабылбекова З. К изучению современных педагогических условий для развития толерантных качеств личности учащегося. // Ж. Фалсафа ва ҳуқуқ. – Т., 2010. - №1. – С. 107-108.
2. Маркова, А.К. Психология профессионализма. М.: Международный гуманитарный фонд «Знание», 1996. –С. 138.
3. Джураев Р.Х. Развитие творческих способностей у будущих педагогов.// Развитие когнитивно-творческих способностей обучающихся в современных условиях.Т, 2011. – С.11-34.
4. Лукьянова, Л.А. Формирование функционально-содержательной основы социокультурной компетенции учащихся 10-11 классов общеобразовательной школы (на материале английского языка) [Текст]: дис. канд. пед. наук: 13.00.02. – Санкт-Петербург, 2014. – 186 с.
5. Татьяна Т. В. Гуманитарный потенциал технологий педагогического общения в развитии профессиональной компетентности будущего учителя: монография / Т. В. Татьяна ; Мордов. гос. пед. ин-т. - Саранск, 2009. - 102 с.